



**AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ZARURIYATI**

Maftuna Ochilova Toshpulat qizi

QarMII 2-bosqich tayanch doktranti

Qarshi Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Sultonqulova Gulsevar

Qarshi Xalqaro Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish zaruriyati tahlil qilinadi. Aholi sonining o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi ushbu masalaning dolzarbligini belgilab bermoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hozirgi holati, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari, hosildorlikni ko'tarish, logistika tizimini modernizatsiya qilish va bozor talablariga mos mahsulotlar yetishtirish kabi yo'nalishlar maqolaning asosiy tahlil obyekti hisoblanadi.*

Kirish. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim masalalardan biridir. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy talablarning ortib borishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu jarayon nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki xalqning farovonligini oshirish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun ham muhimdir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida ulkan imkoniyatlarga ega bo'lib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligida hal qiluvchi o'ringa ega. Shunga qaramasdan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va aholiga yetkazib berish tizimida samaradorlikni oshirish uchun hali ko'plab islohotlarni amalga oshirish zarur. Xususan, hosildorlikni oshirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va bozor talabiga mos mahsulotlar yetishtirish kabi yo'nalishlarda faoliyatni kuchaytirish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirish mavzusida ko'plab zamonaviy iqtisodchilar o'z fikr mulohazalarini bildirishgan. Jeffrey Sachs o'zining *"The End of Poverty"* (Qashshoqlikning tugashi) va boshqa asarlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali qashshoqlikka qarshi kurashishning ahamiyatini ta'kidlaydi. U qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliyaviy yordam muhim ekanligini ilgari suradi. Joseph Stiglitz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda davlat siyosati, kichik fermerlarni qo'llab-quvvatlash va bozor mexanizmlarining muvozanati zarurligini ta'kidlaydi. U oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda global qishloq xo'jaligi tizimlarining barqarorligini muhim omil deb hisoblaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Olga V.Kirillova, Elmira F. Amirova, Maxim G.Kuznetsov, Gulnara A. Valeeva va Galina P.Zakharovalarning fikrlaricha aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda e'tibor qaratish kerak bo'lgan omillarni o'zlarini "Rossiyada oziq ovqat xavfsizligini kafolatiga qaratilgan qishloq xo'jaligi rivojlanishning innovatsion yo'nalishlari" deb nomlangan maqolalarida qayd etilgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgandir. Bu omillar o'z ichiga quydagilarni oladi:⁵⁸

- oziq ovqat ishlab chiqarish sohasida tadqiqot va rivojlantirish sektorini yaratish;
- qishloq xo'jaligi sanoatining innovatsion rivojlanishi uchun ta'lim tizimini isloh qilish;
- qishloq xo'jaligi sanoatini qayta jihozlash;
- qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchilar uchun maslahat markazlari tizimini yaratish;
- intellektual mulk himoyasi tizimini yaratish;
- sohada innovatsiyani, tadqiqot va rivojlanishni qonuniy standartlarini takomillashtirish;

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo'lib, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hududning tabiiy va iqlim sharoitlari dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. Viloyat aholisi sonining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'paytirishni talab qiladi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishidagi muhim ulushga ega bo'lib, don, sabzavot, meva, go'sht va sut kabi asosiy mahsulotlar yetishtiriladi. Hududning qishloq xo'jaligi rivojlanishi nafaqat viloyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki butun mamlakat miqyosida qishloq xo'jaligi sektorining barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali boshqarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va bozor talablariga mos mahsulotlar yetishtirish orqali viloyat iqtisodiyoti yanada rivojlanadi. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi sektori ahamiyati, mavjud ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik darajasi va ushbu tarmoqni rivojlantirish bo'yicha asosiy masalalar yoritiladi.

Qashqadaryo viloyatida 2020-2023 yillarda Yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlarida qishloq xo'jaligining ulushi⁵⁹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2023 yilning 2020 yilga nisbati

⁵⁸ [Innovative directions of agricultural development aimed at ensuring food security in Russia \(bio-conferences.org\)](https://bio-conferences.org)

⁵⁹ Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so‘ m	35 60 5,3	42 56 0,2	49 52 0,8	58 40 0,0	22 794 ,7
Qishloq xo‘jaligi	mlrd.so‘ m	23 77 7,8	28 27 5,6	32 22 7,2	24 46 9,6	6 918
Qishloq xo‘jaligining YHMdagi ulushi	% da	66,7	66,4	65	41,9	-24,8

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Yalpi hududiy mahsulot 2020-yildan 2023-yilgacha sezilarli 64% darajada o‘sgan bo‘lib, taxminan 22 794,7 mlrd so‘mni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘sishi esa ancha past faqatgina 29% ini tashkil qilmoqda. Eng tashvishli holat shundaki, Qishloq xo‘jaligining Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2023-yil 2020-yilga nisbatan -24,8% da tushish kuzatilgan.

Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, qishloq xo‘jaligi yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Bu esa hudud iqtisodiyotida boshqa sohalarning ulushi ko‘payganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyot ko‘rsatkichlari ijobiy o‘sish trendida bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi ulushi pasaymoqda. Hudud iqtisodiyoti boshqa sohalarga ko‘proq e‘tibor qaratayotgan bo‘lishi mumkin. Kelajakda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RUYHATI:

1. [Innovative directions of agricultural development aimed at ensuring food security in Russia \(bio-conferences.org\)](https://bio-conferences.org)
2. Ochilova, M. (n.d.). Aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash samaradorligini oshirish yo‘llari. *Yashil iqtisodiyot taraqqiyoti*. Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1467>
3. Mirziyoyev, Sh. M. (n.d.). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish – bugungi kundagi eng muhim masala. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti*. Retrieved from <https://president.uz/oz/lists/view/3527>
4. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv Xo‘jaligi Vazirligi. (n.d.). Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta‘minlash. Retrieved from <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/527140/5b053dd118d89.pdf>